

**IJTIMOIIY TARMOQLARDA SODIR ETILAYOTGAN
HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING HUQUQIY
ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI**

Qadamov Javohirbek Azizbek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning huquqiy jihatlarini, ularning turlari hamda mavjud javobgarlik shakllari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi yondashuvlar hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, huquqbuzarlik, javobgarlik, O‘zbekiston qonunchiligi, raqamli xavfsizlik, media huquqi, xorijiy tajriba.

**ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА
ПРАВОНАРУШЕНИЯ, СОВЕРШАЕМЫЕ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ, И
НАПРАВЛЕНИЯ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Кадамов Джавахирбек Азизбек угли
Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в данной статье рассматриваются правовые аспекты правонарушений, совершаемых в социальных сетях, их основные виды, а также существующие формы юридической ответственности. Исследуются подходы, предусмотренные действующим законодательством Республики Узбекистан, и анализируется передовой зарубежный опыт в области правового регулирования деятельности социальных сетей. Кроме того, в статье выдвигаются практические предложения по совершенствованию законодательства в данной сфере.

Ключевые слова: социальные сети, правонарушение, ответственность, законодательство Узбекистана, цифровая безопасность, медиаправо, международный опыт.

**LEGAL BASIS OF LIABILITY FOR VIOLATIONS COMMITTED
ON SOCIAL MEDIA AND DIRECTIONS FOR THEIR
IMPROVEMENT**

Kadamov Javokhirbek Azizbek ugli

Master's student of Tashkent State Law University

Abstract: this article examines the legal aspects of violations committed on social media platforms, including their various types and the existing forms of legal liability. It explores the approaches established under the current legislation of the Republic of Uzbekistan and analyzes best practices from foreign countries regarding the legal regulation of social media. In addition, the article presents practical proposals for improving the national legal framework in this field.

Keywords: social media, legal violation, liability, Uzbekistan legislation, digital security, media law, international experience.

Bugungi raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular nafaqat muloqot vositasi, balki axborot olish, tarqatish, muhokama qilish, fikr bildirish, reklama va iqtisodiy faoliyat olib borishning ham asosiy platformasiga aylangan. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar millionlab foydalanuvchilar uchun axborot va ijtimoiy faollik maydoniga aylangan. Biroq, bu ijtimoiy tarmoqlarda o'ziga xos imkoniyatlar bilan birga, afsuski, turli salbiy oqibatlar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda.

So'z erkinligi va axborot olish huquqi ijtimoiy taraqqiyotda, shubhasizm muhim o'rin tutadi. Ammo ushbu erkinlik noto'g'ri talqin qilinib, ba'zida boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy hayoti va huquqlariga tahdid soluvchi harakatlarga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun bu jarayonni huquqiy jihatdan tartibga solish, muvozanatni ta'minlash dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Shu maqolada ushbu huquqbuzarliklarning turlari, O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud normalar, xorijiy davlatlar tajribasi va takomillashtirish yo'llari yoritiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklar ko'p qirrali bo'lib, ularning shakllari va mazmuni texnologik rivojlanish bilan birgalikda murakkablashib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklar asosan quyidagi holatlarda eng ko'p uchramoqda:

Tuhmat va haqorat. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga nisbatan asossiz ayblovlar qo'yilishi, kamsituvchi, tahqirlovchi yoki haqoratli fikrlar bildirilishi inson sha'ni va qadr-qimmatini poymol qilishi mumkin. Bu holatlar ko'p hollarda bloggerlar, jurnalistlar yoki ijtimoiy faollik ko'rsatayotgan shaxslarga qarshi qaratiladi.

Yolg'on axborot tarqatilishi. Feyk xabarlar (soxta xabarlar) bugungi kunda eng xavfli axborot huquqbuzarliklaridan biri hisoblanadi. Bunday xabarlar odamlar orasida vahima, ishonchsizlik va noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga sabab bo'ladi.

Shaxsiy hayotga tajovuz. Roziliksiz suratlar, video yoki yozishmalarni e'lon qilish, joylashuv, telefon raqamlari, tibbiy ma'lumotlar kabi maxfiy axborotlarni tarqatish jinoyat deb qaraladi. Ayniqsa, ayollar va voyaga yetmaganlar bu holatlardan ko'proq aziyat chekmoqda.

Kiberzo‘ravonlik va tahdid. Kiberzo‘ravonlik — internet orqali doimiy bosim, haqorat, tahdid va haqoratli izohlar orqali odamni ruhiy jihatdan zo‘riqtirishdir. Bu nafaqat huquqbuzarlik, balki jiddiy ijtimoiy muammo hisoblanadi.

Soxta akkauntlar va firibgarlik. Begona shaxs nomidan ijtimoiy tarmoqda akkaunt ochib, uning nomidan soxta xabarlar tarqatish, odamlarni chalg‘itish, hatto moddiy zarar yetkazish holatlari ko‘paymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi choralari bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar orqali belgilangan. Shu jumladan Jinoyat kodeksining 139-moddasi¹ (Tuhmat), 140-moddasi (Haqorat), 141-1-moddasi (Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish), (244-moddasi (Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborot tarqatish) hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 40-moddasi² (Haqorat qilish), 41-moddasi (Tuhmat qilish) va 46-moddalarini (Axborotdan noqonuniy foydalanish) keltirish mumkin. Bundan tashqari “Shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunda³ ham shaxsga doir ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish qat’iy tartibga solingan.

Amaliyotda bu qonun moddalari bo‘yicha bir qancha sud ishlari mavjud bo‘lib, ular orqali ijtimoiy tarmoqlarda huquq buzilgan holatlarda qanday javobgarlik choralari ko‘rilayotganini kuzatish mumkin.

Xalqaro tajribada ko‘plab davlatlar ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishda turlicha yondashuvlardan foydalanadi. Masalan, Germaniyada “NetzDG” qonuni asosida platformalarga noqonuniy kontentni 24 soat ichida o‘chirish majburiyati

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111457>.

² O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. <https://lex.uz/docs/97664>.

³ “Shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun. <https://lex.uz/docs/4381112>.

yuklangan, Fransiyada “anti-fake news” qonuni orqali feyk yangiliklarning oldini olishga qaratilgan choralar ko‘rib chiqilmoqda. Janubiy Koreyada esa internetda haqorat, kibertahdid va shaxsiy ma’lumotlar oshkor qilinishiga nisbatan og‘ir jazolar belgilangan.

Bu kabi tajribalar O‘zbekistonda mavjud qonunchilikni rivojlantirishda, mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishda hamda amaliy choralarni kuchaytirishda nihoyatda foydali bo‘lishi mumkin. Xususan, Germaniyaning “NetzDG” qonunida platformalarga noqonuniy kontentni qisqa muddat ichida o‘chirish majburiyatining yuklanishi, Janubiy Koreyada onlayn tahdid va haqoratga nisbatan qat’iy javobgarlik belgilanishi O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq tarzda moslashtirilishi mumkin bo‘lgan samarali yondashuvlardir. Bunday xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali O‘zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqiy javobgarlikni aniq belgilash va fuqarolarning axborot xavfsizligini ta’minlashga doir normativ hujjatlar bazasini yanada mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, xalqaro huquq normalariga mos ravishda platformalarning mas’uliyatini oshirish, shikoyat va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish, davlat va nodavlat sektori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishda yanada aniq, tizimli va barqaror yondashuvlar joriy etish imkonini beradi.

Huquqiy tizimni takomillashtirishning bir nechta yo‘llari mavjud. Jumladan, quyidagi takliflar ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklar bilan kurashishda samarali bo‘lishi mumkin:

- Internet platformalarning huquqiy maqomini aniqlashtirish va ularni O‘zbekiston yurisdiksiyasiga tortish;

- Blogerlar va faol foydalanuvchilar uchun alohida huquqiy maqom belgilovchi qonun qabul qilish;

- Shaxsiy hayot, sha'n va qadr-qimmatga oid huquq buzilishlarini tezkor aniqlash uchun sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy qilish.

Shuningdek, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirib boorish, bu borada ijtimoiy tarmoqdagi huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish, maktab va oliy o'quv yurtlarida tegishli fanlarni kiritish, platformalar va davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini mustahkamlash kerak bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar bugungi axborot asrining ajralmas muammosiga aylangan. Shaxsiy hayotga tajovuz, yolg'on axborot, kiberzo'ravonlik va boshqa buzg'unchi harakatlarga nisbatan faqat jazo choralarini kuchaytirish emas, balki profilaktik yondashuvni kuchaytirish, qonunchilikni zamon talablari asosida takomillashtirish zarur.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba va texnologik yutuqlar asosida O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha aniq, samarali va xalqaro standartlarga mos yondashuv ishlab chiqilishi lozim. Bu esa, fuqarolarning axborot xavfsizligini ta'minlash va sog'lom media muhitni shakllantirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN AABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 1994-yil 22-sentabrdagi 2012-XII-sonli Qonun.

2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi – 1994-yil 22-sentabr.

3. “Shaxsiy ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonun – 2019-yil 2-iyul, O‘RQ-561-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023-yilgi yangi tahrir, 33- va 43-moddalar.
5. “Axborotlashtirish to’g’risida”gi Qonun – O‘RQ-94-son, 2003-yil 11-dekabr.
6. Mass-mediani huquqiy muhofaza qilish mexanizmlari / A.Mirzayev. – Toshkent: TDYU, 2021.
7. “O‘zbekiston Respublikasining media sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasi” – 2023-yil, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi.
8. Davlatlararo axborot xavfsizligi sohasidagi hamkorlik strategiyasi – MDH, 2021-yil.
9. Council of Europe – Convention on Cybercrime (Budapest Convention) – 2001-yil.
10. General Data Protection Regulation (GDPR) – Yevropa Ittifoqi, 2016-yil 27-aprel.
11. Netzwerkdurchsetzungsgesetz (NetzDG), Germany – 2017-yil 1-oktabrda kuchga kirgan.
12. Digital Services Act (DSA), European Union – 2022-yil.
13. Korea Information Security Agency (KISA) guidelines on cybercrime, 2021.
14. Vincent R. Johnson, “Cyber Law and Digital Rights” – Journal of Internet Law, 2020.
15. Siddiqova G., “Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy tartibga solish muammolari”, – Yuridik fanlar jurnalida, 2023-yil, 2-son.

16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha qarorlar to‘plami – 2022–2023-yillar.

17. “Axborot madaniyati va ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyat”, Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2023.